

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TUGALLANGANLIK MA'NOSINING PRAGMATIK IFODALANISHI

*M. Saloxiddinov*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada tugallanganlik mazmunan turli voqea-hodisalarning yakuniy fazasi, natijasi, transformativ vaziyatlarda semantik voqelanishi tahlil qilingan. Jumladan, ingliz tilida perfekt va tugallanganlik ma'lum grammatik shakllanganligi, pragmatik ifodalanish jihatlarida, voqea-hodisalar ketma-ketligida farqli tomonlari aniq ko'zga tashlanadi. O'zbek tilida esa tugallangan ma'nolarni faqatgina kontekstda, pragmatik ifodalanish jihatlarini misollar bilan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: perfekt, dinamik sinf, tranzitivlik, terminativlik, dinamik, rezultativ, semantik tasnif.

doi: <https://doi.org/10.2024/52bh7g25>

Fe'ning tus xarakteri tus mazmuniga ega bo'lmagan asosiy guruhda o'zini erkin namoyon etadi. Tus-zamon shakllarida esa tus xarakteri tus mazmuniga yoki mos bo'ladi, (guruhdagi chegaralanmagan fe'llar, perfekt + chegaralangan fe'llar), yoki inkor etadi (davomiy guruhdagi chegaralangan fe'llar perfekt + chegaralanmagan fe'llar). Mazkur hollarda shakl mazmuni o'zgaradi. Shunday qilib, aytish mumkinki, ingliz tilida tus kategoriyasining mavjudligi umuman tan olinadi.

Dinamik sinfga tegishli fe'llarning ichki tuzulishida ularni qarama-qarshi qo'yishlardan biri, bu ularni jarayon (events) va hodisa (achievements) kabi turlarga ajratish hisoblanadi. Ular o'rtasidagi farqlanish zamon-vaqt tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, hodisa ma'lum qisqa vaqt davomida bir holatdan ikkinchi holatga o'tishni anglatish uchun qo'llanilsa, jarayon holatning rivojlanishi va asta-sekinlik bilan o'zgarishiga nisbatan qo'llaniladi. Jarayon guruhiga tegishli fe'llarga yugurmoq, o'ynamoq, ishlamoq kirsas, hodisaga esa sakramoq, portlamoq, yiqilmoq xos hisoblanadi.

Shunday qilib, jarayon vaqt mobaynida o'zgarib borishi nazarda tutilar ekan, demak ularning tugash, o'z yakuniy nuqtasiga yetishi ham ko'zda tutiladi. Masalan, roman yozmoq jarayon tushunchasida talqin etilsa, yozib tugatmoq hodisa sifatida qaraladi. Birinchisida chegaralanmagan xususiyat yuzaga kelsa, ikkinchi holat chegaralangan deb ataladi.

The dizziness swept over her; (holat, tranzitivlik + terminativlik)

He tapped the pages and set them down in their place; (holat, tranzitivlik + terminativlik)

A hole opened up at the back of the canoe at waterline; (holat, tranzitivlik + terminativlik)

G'ira-shirada yo'lga chiqqan Boboqul bilan Mirqobil chaqchaqlashib yengil qadam tashlab borishardi. (L. Mahmudov "Jasur bolalar" Toshkent 1973 Yosh gvardiya nashriyoti. B. 29)

¹ Saloxiddinov Manuchehr Sharofiddinovich, Samarqand davlat chet tillar instituti, o'qituvchi

So'rining ostidan kattagina ananas qovunni olib kosaladi. (L. Mahmudov "Jasur bolalar" Toshkent 1973 Yosh gvardiya nashriyoti. B. 30)

A. Hojiev o'z tadqiqotlarida o'zbek tilida ko'makchi fe'llar ifodalaydigan harakat usullarining yetti xil tavsifini beradi, lekin bu fazalarning ichki aloqalarini, ya'ni aksional xususiyatlarni izchil yoritib berishga imkon beradi (A.Hojiev, 1966).

Agarda sof semantik tasnifga o'tadigan bo'lsak, D.M. Nasilov bunday guruhlarini uchta, kichik guruhlarini bilan esa yettita, deb hisoblagan: 1. natijali harakat fe'llari: a) "tuzish va buzish" fe'llari; buz-, yemir-, tuz-, ajrat-, erit-, maydala-, yo'qot-, yasa-, ula-, sol-, qo'sh-, tik-, va bq.; b) o'zgaruvchi ta'sir fe'llari: sovunla-. Tesh-, yop-, yech-, art-, beza-, bos-, bog'la-, isit-, shil-, qirq-, ko'm-, va bq.; v) olish-berish, egallash ma'nosidagi fe'lar: ol-, sot-, sotib ol-, o'g'irla-, ayir-, topshir-, egalla-, va bq; g) fiziologik, ruhiy ta'sir va ma'naviy faoliyat fe'llari: azobla-, qiyna-, o'ksit-, o'qit-, qo'rqit-, tushintir-, o'rgat-, va bq.; 2. fazali harakat fe'llari: jildir, yumalat-, ag'nat-, o'rnat-, hayda-, ko'chir-, tort-, va bq.; 3. Bir yoqlama yo'nalish fe'llari: chiq-, kir-, kel-, ket-, kech-, o't-, jo'na-, yet-, jil-, qoch-, yaqinlash-, uzoqlash-, qayt- bor- va bq. (D.M. Nasilov, 1989: 154-158.)

Fe'ning mazmun-ma'nosi ko'p jihatli murakkab xodisa bo'lib, turli komponentlarni (leksik, grammatik, dinotativ, konnotativ) o'z ichiga oladi. Ular turli vazifalarni bajarib, har xil ko'rinishlarga ega nutq birligi sifatida o'zida ko'p ma'lumotlarni mujassamlashtirgan. Hozirgi zamon tilshunoslikda maydon modelining juda ko'p turlari mavjud. Bu modellar o'rganilayotgan til hodisasini to'liq va aniq ifodalab beradi. Xususan, aspektual semantikaning tahlilini ham bevosita maydon nazariyasi doirasida olib borilishi ko'zlangan maqsadga erishishda muhim o'rin tutadi. Fe'llar har qanday til ifoda mazmunida eng muhim o'rinda turadi.

O'zbek tilida esa ko'pchilik holatlarda tugallanganlik ma'nosi stativ semantikali ko'makchi fe'l hamda holatni anglatuvchi yetakchi fe'l birikmalarida yuzaga keladi. Mazkur holda subyektning nutq vaziyatidagi holati oldin sodir etilgan harakatga nisbatan rezultativ ma'noni bildiradi. Masalan: Suvga ivitilgan qalampirmunchoqning hidi sarimsoq kabi me'daga tekkanday bo'ldi. Kalakalanib qoldim (G'G'ulom, 114); – Kenjatoy o'g'lingiz Bo'riboyvachcha, terakka chiqib, chumchuq bolasini olaman deb yiqilib tushib, bir marta "dada", dedi-yu, "g'iyq..." etib jon berdi (G' G'ulom, 214).

Qiyoslanayotgan ikkala tilda ham, grammatik ko'rsatgichlar yordamida yuzaga keladigan tugallangan ma'no ko'pgina hollarda fe'ning leksik manbasiga borib taqaladi. Bu ingliz tilida tugallanganlik mazmuniga ega to finish, end va shu kabi fe'llardan tashqari, dinamik fe'llarning chegaralangan aksional xususiyati bilan ham bog'liq. Shuningdek, tugallanganlik obyektning miqdoriy ko'rsatkichlari, ma'noning yakuniy manzil nuqtasining aniqligi, temporal birliklar bilan ham ifodalanadi. O'zbek tilida bu fe'llarning chegaralanganlik xususiyatidan tashqari ko'makchi fe'llarning leksik ma'nosiga bog'liq. O'zbek tilidagi qator ko'makchi fe'llar tugallangan ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, o'zbek tilida tugallanganlik mazmuni semantik farqlanishlarga ega. Jumladan, ma'lum hatti-harakat natijasida yuzaga keladigan tugallanganlik, tasodifiy tugallanganlik, to'liq tugallanganlik, maqsadli tugallanganlik va hokazolar. Ushbu semantik farqlanishlar yetakchi fe'llarning leksik ma'nosi va unga modifikasiyalashadigan ko'makchi fe'l ma'nosiga bog'liq. Shuningdek, o'zbek tilidagi to'liqsiz fe'llarning zamonda qo'llanilishida ham voqea-hodisalarning tugallanganlik mazmuni ko'zga tashlanadi.

Tugallangan xususiyatga ega bo'lgan fe'llarning obyektga nisbatan munosabatini quyidagi komponentlarga ajratish mumkin: "maqsadli natijaga erishish" (X (subyekt) Y (obyekt) holatini o'zgartirish orqali tugallanganlikka erishadi, masalan; to destroy the files / sabzini tug'ramoq, "zamonga aloqador natija" (X (subyekt) nutq vaziyatidan oldin Y

(obyekt)ni bir holatdan boshqa holatga o'tkazishi orqali tugallanganka erishadi, masalan; he spilled the milk /mushuk sutni ag'darib yubordi, "kauzativ tugallanganlik" X (subyekt) boshqa shaxsga Z (boshqa shaxs) jismoniy yoki verbal ta'sir etish natijasida Y (obyekt) holatini o'zgartiradi, rezultativlikka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Abduazizov A.A. *Tilshunoslik nazariyasiga kirish*. – T.: Sharq, 2010. – 144 b.
- [2]. Hojiev A. *Fe'l*. – Toshkent: Fan, 1973. – 192 b.
- [3]. Mirsanov G'. Q. *Diskurs tarkibida aspektual va temporallik mazmun ifodasi*. – Toshkent: "Navro'z", 2018. – 156 b.
- [4]. Nasilov D.M. *Problemi tyurkskoy aspektologii: Aksional'nost'*. – L.: Nauka, 1989. – 208 s.
- [5]. Carrier J., Randall J.H., *The Argument Structure and Syntactic Structure of Resultatives* // *Linguistic Inquiry* 23, 1992. – R. 173-234.